

MILLIY IQTISODIYOTNING MUVOZANATLI VA MUTANOSIBLI RIVOJLANISHI (O'ZBEKISTONDAGI HUDUDIY NOMUTANOSIBLI MUAMMOSI MISOLIDA)

Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti talabasi

Mamatqulova Surayyo Ikromovna

PhD katta o'qituvchi Mo'minova Dildora Dilshodovna

Annotatsiya: Iqtisodiy muvozanat tushunchasi va ishlab chiqarish muvozanati darajasini aniqlashga turlicha yondashuvlar, ijtimoiy takror ishlab chiqarishning turli tomonlari, bandlik tarmoqlari o'rtasidagi mutanosibliklar tizimi, ulaming ta'minlanish darajasi hamda tarmoqlararo balansning mazmuni bayon qiladi. Shuningdek, makroiqtisodiy muvozanatga erishishning davlat va bozor mexanizmlarini yoritib beriladi, eng muhimi iqtisodiyotda muvozanatlik va mutanosiblikni ta'minlash iqtisodiy inqirozlarning oldini olishning muhim vositasi ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Annotation: The concept of economic equilibrium and various approaches to determining the level of production equilibrium, different aspects of social reproduction, the system of proportions between employment sectors, their level of provision, as well as the content of intersectoral balance are described in this work. It also explains the state and market mechanisms for achieving macroeconomic equilibrium. Special attention is paid to the fact that ensuring balance and proportionality in the economy is an important means of preventing economic crises.

Аннотация: Понятие экономического равновесия и различные подходы к определению уровня производственного равновесия, различные стороны общественного воспроизводства, система пропорций между отраслями занятости, уровень их обеспечения, а также содержание межотраслевого баланса излагаются в данной работе. Также освещаются государственные и рыночные механизмы достижения макроэкономического равновесия. Особое внимание уделяется тому, что обеспечение сбалансированности и пропорциональности в экономике является важным средством предотвращения экономических кризисов.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, muvozanatli rivojlanish, xususiy muvozanat, umumiy iqtisodiy muvozanat, mutanosib rivojlanish, hududiy ishsizlik, viloyatlararo tafovut, bandlik, investitsiya, infratuzilma, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot.

Keywords: national economy, balanced development, partial equilibrium, general economic equilibrium, proportional development, regional unemployment, interregional disparities, employment, investment, infrastructure, small business, digital economy.

Ключевые слова: национальная экономика, сбалансированное развитие, частичное равновесие, общее экономическое равновесие, пропорциональное развитие, региональная безработица, межрегиональные различия, занятость, инвестиции, инфраструктура, малый бизнес, цифровая экономика.

KIRISH

Muvozanatlik iqtisodiyot nazariyasining muhim tadqiqot kategoriyalaridan biri bo'lib, u orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, ya'ni milliy daromad, iste'mol va jamg'arma, investitsiyalar, ishsizlik va bandlik kabilarni tahlil qilishda keng foydalaniadi. Milliy iqtisodiyot miqyosida jamiyatning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanat asosiy o'rin tutib, bu yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning o'ziga xos namoyon bo'lishidir. Iqtisodiyotning inqirozlarsiz, barqaror rivojlanishi uchun uning turli tomondan o'rtasida ma'lum muvozanat bolishi taqozo etiladi. Iqtisodiy muvozanat deb bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va ta'sirda amal qiladigan iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytiladi. Shuning uchun ham butun

iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi tenglik e'tiborga olinadi. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanishi, uni ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Chunki u xususiy va umumiy tavsifdagi bir qator muvozanatlar tizimini o'z ichiga oladi. Xususiy muvozanat iqtisodiyotning ayrim boiaklarida, soha va yo'nalishlarida ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki tomonlarining miqdoran teng kelishi, xususiy muvozanat ishlab chiqarish va iste'mol, aholining sotib olish layoqati va tovar taklifi masalalari, budget daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga talab va taklif o'rtasidagi muvozanat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu muvozanatlar ichida Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: «...ichki bozorda talab bilan taklif o'rtasida mutanosiblikka erishish, ya'ni chiqarilgan pul miqdori bilan unga sotib olinadigan mollar salmog'i o'rtasida to'g'ri nisbatni ta'minlash g'oyat katta rol o'ynaydi».

Mavjud iqtisodiy tizimni butunlay yangi tartiblar asosida isloh qilish iqtisodiyotning rivojlanishidagi turli nomutanosibliklar hamda tanglik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida iqtisodiyotni jonlantirish, bir tekis rivojlantirish va barqarorlashtirish jarayoni qonuniy bosqich hisoblanadi. Barqarorlashtirish jarayoni iqtisodiy rivojlanishda inqiroz holatlarining oldini olish uchun ishlab chiqarish va chiqarilayotgan mahsulot tarkibini o'zgartirishga yo'naitiriladi. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki davrida barqarorlashtirish siyosatidan ko'zda tutilgan maqsad eng awalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishni keskin darajada pasayishining oldini olish va ommaviy ishsizlikning kelib chiqishiga yo'l

qo'ymaslikdan iborat bo'ldi. Shu bilan birga bu siyosat pul emissiyasini boshqarish, uning qadrsizlanishining oldini olish, mamlakat to'lov balansini bir me'yorda saqlash kabi maqsadlarni ham o'z ichiga oladi. Respublikada barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda jahon tajribasida sinalgan yondashuvlar hisobga olinib, ishlab chiqarish sohaslariga ustunlik berildi. Moddiy ishlab chiqarish sohaslarining rivojlanishida ularni tarkiban qayta qurish talablari ham ko'zda tutildi. Bunda asosiy e'tibor katta istiqbolga ega bo'lgan, butun iqtisodiyotning rivojlanish tamoyillarini belgilab beradigan yetakchi tarmoq va sohalarga qaratildi. Iqtisodiyotda zarur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirgunga qadar ishlab chiqarish hajmining pasayib ketishiga barham berish eng muhim maqsad bo'lib qoladi. Shu sababli respublikada 90-yillarning o'rtalaridayoq makroiqtisodiy barqarorlik sohasida ishlab chiqarish sur'atlari pasayishining sekinteshuvi ko'zga tashlandi, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa o'sishga erishildi. Iqtisodiyotning ikkita yetakchi tarmog'i sanoat va qishloq xo'jaligini isloh qilish va qo'llab-quvatlashga qaratilgan tadbirlar natijasida sanoatda 1995-yildayoq, qishloq xo'jaligida 1997-yilda ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va infratuzilma tizimini takomillashtirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati viloyatlar kesimida bir xil emas, ayniqsa ish o'rinlari yetishmasligi hududiy ishsizlik muammosini kuchaytiradi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda izchil o'smoqda. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) yillik 5–6% o'sish sur'atiga ega, sanoat va xizmat ko'rsatish sektori rivojlanmoqda, qishloq xo'jaligi yuqori hosildorlik bilan ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, barcha hududlar bir xil rivojlanmagan. Toshkent shahri, Andijon va Farg'ona viloyatlarida sanoat va xizmat ko'rsatish sektori rivojlangan, investitsiyalar ko'p, bandlik darajasi yuqori bo'lsa, Buxoro, Qashqadaryo, Sirdaryo va Xorazm kabi hududlarda sanoat past rivojlangan, investitsiyalar kam va ish o'rinlari yetishmaydi. Natijada ushbu hududlarda ishsizlik darajasi yuqori bo'lib, ijtimoiy muammolar kuchaymoqda.

Bandlik darajasi yuqori bo'lgan hududlardan biri ya'ni Toshkent shaharini so'nggi yillardagi statistik malumotlariga e'tibor qaratsak, jami mehnat resurslari soni 1911,5 ming kishini tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich poytaxtda mehnatga layoqatli aholining juda katta salmog'iga ega ekanligini bildiradi. Shundan 1373,0 ming kishi turli sohalarda band bo'lib, bandlik darajasi 82,9 foizni tashkil etgan. Bu juda yuqori ko'rsatkich bo'lib, Toshkent shahrida ish o'rinlari ko'pligi va iqtisodiy faollik yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, shaharda 91,6 ming nafar fuqaro ishsiz sifatida qayd etilgan bo'lib, ishsizlik darajasi 6,3 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan past bo'lsa-da, poytaxt uchun ham ishsizlik muammosi

to'liq bartaraf etilmaganini anglatadi. Bundan tashqari, 446,9 ming kishi iqtisodiy faol bo'lmagan aholi tarkibiga kiradi. Ushbu toifaga o'qiyotganlar, uy bekalari, nafaqaxo'rlar va boshqa sabablarga ko'ra mehnat faoliyatida qatnashmayotgan shaxslar kiradi. Toshkent shahrining mehnat ko'rsatkichlari yuqori bandlik darajasi va nisbatan past ishsizlik bilan ajralib turadi. Bu esa shaharda iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mavjud ishsizlikni kamaytirish va iqtisodiy faol bo'lmagan aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirish muhim hisoblanadi.

Endi esa bandlik darajasi yetishmaydigan hududlardan biri Sirdaryo viloyatini statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratsak bunda, mehnat resurslari 486,5 ming kishini tashkil etgan bo'lsa-da, bu salohiyat to'liq ishga solinmayotgani ko'zga tashlanadi. Chunki ushbu resurslarning sezilarli qismi barqaror ish bilan ta'minlanmagan. Viloyatda atigi 341,8 ming kishi band bo'lib, bu umumiy mehnat resurslariga nisbatan past ulushni tashkil etadi. 65,5 foizlik bandlik darajasi shuni anglatadiki, iqtisodiy faoliyat yetarli darajada rivojlanmagan va yangi ish o'rinlari yaratish sur'ati past. Bu holat ayniqsa qishloq hududlarida yaqqol seziladi. Ishsizlik ko'rsatkichi ham muhim signal hisoblanadi. 34,1 ming nafar ishsiz va 9,1 foizlik daraja hududda ish topish imkoniyatlari cheklanganini ko'rsatadi. Bu esa aholining boshqa hududlarga, ayniqsa yirik shaharlarga ish izlab ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Yana bir e'tiborli jihat — 110,6 ming kishining iqtisodiy faol bo'lmagan toifaga kirishi. Bu ko'rsatkich shuni bildiradiki, viloyatda mehnatga layoqatli aholining bir qismi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlaridan chetda qolmoqda. Bu esa iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini kamaytiradi. Shunday qilib, Sirdaryo viloyatida mehnat bozorining asosiy muammosi — mavjud resurslardan to'liq foydalanilmayotgani va ish o'rinlari yetishmasligidir. Bu muammoni hal qilish uchun hududga investitsiyalarni ko'proq jalb qilish, kichik biznesni rivojlantirish va yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy ishsizlikning asosiy sabablari bir necha yo'nalishda ko'rinadi. Birinchidan, infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi — yo'l, elektr, suv va internet tarmoqlari chekka hududlarda sust rivojlangan. Ikkinchidan, investitsiyalarning notekis taqsimlanishi — asosiy loyihalar markaziy hududlarga yo'naltirilgan, chekka hududlarda ishlab chiqarish salohiyati past. Uchinchidan, sanoat va xizmat ko'rsatish markazlashuvi — yirik shaharlarda ish o'rinlari jamlangan. To'rtinchidan, bandlik va ish o'rinlari yetishmasligi mehnat migratsiyasini kuchaytiradi, yoshlar va malakali ishchi kuchi yirik shaharlarga ko'chib ketadi.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik va ishsizlik muammosini bartaraf etish uchun, avvalo, investitsiyalarni adolatli va samarali taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, kam rivojlangan viloyatlarda sanoat parklarini tashkil etish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish hamda tadbirkorlarga soliq imtiyozlari

berish orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin. Bu esa bevosita yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi bandligining ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Transport tizimini yaxshilash, elektr energiyasi va internet tarmoqlarini modernizatsiya qilish hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshiradi hamda investorlar uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada, chekka hududlarda ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanadi. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, grant dasturlarini kengaytirish va biznes inkubatorlarni tashkil etish orqali aholini o‘z biznesini boshlashga rag‘batlantirish mumkin. Bu esa mahalliy darajada yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari, ta‘lim tizimini takomillashtirish va mehnat salohiyatini oshirish ham muhim rol o‘ynaydi. Kasb-hunar markazlarini rivojlantirish, aholiga zamonaviy kasblarni o‘rgatish va onlayn ta‘lim imkoniyatlarini kengaytirish orqali ishchi kuchining malakasi oshiriladi. Bu esa mehnat bozoridagi talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblikni kamaytiradi. Zamonaviy sharoitda raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Elektron tijorat, agrar texnologiyalar va startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi iqtisodiy yo‘nalishlar yaratiladi. Bu esa nafaqat bandlikni oshiradi, balki iqtisodiyotning umumiy samaradorligini ham yuksaltiradi. Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirish viloyatlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni kamaytiradi, hududiy ishsizlik muammosini bartaraf etadi va milliy iqtisodiyotning muvozanatli hamda barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda hududlar kesimida mehnat resurslaridan foydalanish darajasi sezilarli darajada farq qiladi va bu holat milliy iqtisodiyotda muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, mamlakatda mavjud iqtisodiy imkoniyatlar va resurslar hududlar bo‘yicha teng taqsimlanmagan. Natijada ayrim hududlarda mehnat resurslari to‘liq ishga jalb etilmayapti, bu esa iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, hududiy ishsizlik aholining boshqa hududlarga migratsiyasini kuchaytirib, ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, iqtisodiy siyosatda asosiy e‘tibor kam rivojlangan hududlarda ish o‘rinlarini ko‘paytirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va mahalliy iqtisodiy faollikni oshirishga qaratilishi zarur. Faqatgina shu yo‘l bilan hududlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanish mumkin bo‘ladi. Yakuniy natijada esa barcha hududlarda bandlik darajasi barqarorlashadi, ishsizlik kamayadi va milliy iqtisodiyot yanada muvozanatli hamda barqaror rivojlanish bosqichiga o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'Imasov A., Vahobov A.V. "Iqtisodiyot nazariyasi 2014
2. Vahobov A.V., Sirojiddinov N.S. va boshqalar. "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar"
3. Angus Maddison - "The World Economy: A Millennial Perspective"
4. Ravenhill, John. Global Siyosiy Iqtisodiyot. 6-nashr. Oxford: Oxford University Press, 2020.
5. Muminova D. Improvement OF Marketing Communication Strategies in Chemical Industry Enterprises //Green Economy and Development. – T. 2. – №. 9. – C. 664966.